



Epidemiology of measles immunoprophylaxis among the population of the Namangan region

Makhliyo UMAROVA¹, Doniyorbek ISMOILOV²

Kimyo International University in Tashkent, Namangan Branch

Head of the Immunoprophylaxis Department of the Namangan Regional Department of Sanitary and Epidemiological Wellbeing and Public Health

ARTICLE INFO

Article history:

Received August 2024

Received in revised form

10 September 2024

Accepted 25 September 2024

Available online

15 October 2024

Keywords:

epidemiology,
measles,
immunoprophylaxis,
epidemiological
effectiveness.

ABSTRACT

Measles is a viral infectious disease that affects people of all ages. According to WHO, in 2023, more than 42,000 cases of measles were recorded in 40 of the 53 countries in the European Region, compared to only 941 cases in 2022. WHO attributed this increase in incidence to a decrease in vaccination coverage in the European Region in 2020-2022. Routine immunization activities were suspended due to the COVID-19 pandemic. The article discusses the observation of measles among the population of the Namangan region in 2024 and the epidemiological effectiveness of measles immunoprophylaxis.

2181-3663/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3663-vol3-iss5-pp118-122>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Namangan viloyati aholisi orasida qizamiq immunoprofilaktikasining epidemiologik samaradorligi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

epidemiologiya,
qizamiq,
immunoprofilaktika,
epidemiologik samaradorlik.

Qizamiq kasalligi barcha yoshdagi odamlarga ta'sir etuvchi, virusli yuqumli kasalliklardan biridir. JSSTning ma'lumotlariga ko'ra 2023-yilda Yevropa mintaqasiga kiruvchi 53 ta davlatdan 40 tasida 42 mingdan ortiq holatda qizamiq kasalligi qayd etilgan bo'lsa, 2022-yilda qizamiq kasalligi ko'rsatkichi atiga 941 ta holatda aniqlangan. JSST kasallanishning bunday o'sishini 2020–2022-yillarda Yevropa mintaqasi mamlakatlarida emlash qamrovining pasayishi bilan izohladi. Muntazam immunizatsiya ishlari COVID-

¹ Teacher, Department of Fundamental Medical Sciences, Kimyo International University in Tashkent, Namangan Branch. E-mail: queenking1093@mail.ru

² Head of the Immunoprophylaxis Department of the Namangan Regional Department of Sanitary and Epidemiological Wellbeing and Public Health. E-mail: ismoilovdoni9797@icloud.com

19 pandemiyasi tufayli to'xtatilgan. Maqolada 2024 yil Namangan viloyati aholisi orasida qizamiq kasalligining kuzatilishi va qizamiq immunoprofilaktikasining epidemiologik samaradorligi yoritilgan.

Эпидемиологическая эффективность иммунопрофилактики кори среди населения Наманганской области

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

эпидемиология,
корь,
иммунопрофилактика,
эпидемиологическая
эффективность.

Корь — вирусное инфекционное заболевание, поражающее людей всех возрастов. По данным ВОЗ, в 2023 году в 40 из 53 стран Европейского региона было зарегистрировано более 42 000 случаев кори по сравнению с 941 случаем в 2022 году. ВОЗ связывает рост заболеваемости со снижением охвата вакцинацией в странах Европейского региона в 2020–2022 годах. Плановые мероприятия по иммунизации приостановлены из-за пандемии COVID-19. В статье рассматриваются вопросы эпидемиологического надзора за корью среди населения Наманганской области в 2024 году и эпидемиологическая эффективность иммунопрофилактики кори.

KIRISH

Qizamiq - antroponoz, o'ta yuqumli, virusli, yuqumli kasallik bo'lib, qo'zg'atuvchining yuqish mehanizmi aspiratsion bo'lib, makulopapulyar bosqichli toshmalar, konyunktivit, burun bo'shlig'i va yuqori nafas yo'llarida kataral hodisalar bilan birga keladi. Qizamiq miloddan avvalgi VI asrdan beri ma'lum. Tadqiqotchilar J.F. Enders va T.K. Peebleslar tomonidan 1954 yilda David Edmonston ismli AQShdan kelgan 11 yoshli bolada qizamiq kasalligi aniqlandi (Enders J. F. va boshq., 1954) [1,3].

Qizamiqqa qarshi kurash tarixi 200 yilni o'z ichiga oladi. X asrda fors shifokori Razes tomonidan kasallik "Chechakdan ko'ra ko'proq qo'rqinchli" deb ta'riflagan. 1846 yilda Piter Panum qizamiqning yashirin davri va kasallikdan tuzalgandan keyin umrbod immunitetni qolishini aytib o'tgan.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) 2010 yil Yevropada qizamiq va qizilcha bilan kurashish yili deb e'lon qilindi. Biroq, barcha sa'y — harakatlarga qaramay, JSST ma'lumotiga ko'ra 2011 yilda 158 000 kishi qizamiqdan vafot etdi kuniga deyarli 430 holat yoki soatiga 18 holat. Kasallik holatlarining aksariyati kam daromadli mamlakatlarda, sog'ligi zaif bo'lgan bolalar orasida qayd etilgan [4].

Yer kurrasida har yili 50-60 mln, atrofida qizamiq bilan kasallanish holatlari qayd qilinadi. Qizamiq qo'zg'atuvchisi bo'lib RNK tutuvchi miksovirus (Morbillivirus) hisoblanadi. U tashqi muhitga chidamsiz, quyosh yorug'ligi ta'sirida 10 minut ichida 90 % faolligini yo'qotadi, tarqoq quyosh nuri ta'sirida 21-40 soat ichida 90-99 % faolligini yo'qotadi. Quritilganda tezda nobud bo'ladi.

Qizamiq yer yuzida eng ko'p tarqalgan infeksiyalardan biri hisoblanadi. Yilning hamma faslida uchraydi, kuz-qish va baxor oylarida kasallik ko'payadi, 95-96% kontagioz. Kasallik manbai - bemor odam. Kasallikning kataral davrida va toshma toshish davrining 1-kunida yuqumliligi yuqori, 3-kunidan boshlab yuqumlilik pasayadi, 4-kunidan bemor

xavfsiz hisoblanadi. Kasallik havo-tomchi yo'li orqali yuqadi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, COVID-19 pandemiyasi tufayli 1,8 milliondan ortiq bolalar qizamiqqa qarshi emlanmagan. Qizamiq bilan kasallanish holatlari hatto ilgari ushbu kasallik kuzatilmay qo'ygani haqida e'lon bergan mamlakatlarda ham qayd etildi.

Qizamiq barcha yosh guruhlariga ta'sir qiladi, ammo, umuman olganda, beshta holatdan ikkitasi 1 yoshdan 4 yoshgacha bo'lgan bolalar va har beshinchi holatdan biri 20 yoshdan oshgan kattalardir. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, agar shoshilinch choralar ko'rilmasa, 2024 yil oxiriga kelib, dunyo mamlakatlarining yarmidan ko'pida qizamiq epidemiyasi tarqalish xavfi juda yuqori ekanligidan ogohlantirgan. Chunki ushbu kasallik Shimoliy va Janubiy Amerika qit'alaridan boshqa deyarli barcha mintaqalarda qayd etilgan.

2021-yilda COVID-19 pandemiyasi tufayli dunyoda rekord darajadagi 40 mln bola qizamiqqa qarshi rejali emlanmadi. 25 mln bola birinchi, 14,7 mln bola esa ikkinchi doza bilan emlanmagan.

MATERIALLAR VA USULLAR

Dunyoning turli xil jurnallarida chop etilgan turli maqolalar va Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining emlash hujjatlari. Ushbu ilmiy ishning bajarilishida epidemiologik va statistik usullardan foydalanildi.

Natija va munozaralar: 2017-yilda JSST O'zbekistonni rasman qizamiq va qizilcha kasalligidan holi davlat deb tan olgan edi. Biroq 2018-yildayoq mamlakatda qizamiq bilan kasallanish holatlari yana aniqlangan. 2019-yilda Sog'liqni saqlash vazirligi ushbu holatlar chetdan olib kelinganini ma'lum qildi.

2024 yilda O'zbekiston Respublikasida 9769 nafar bemor laboratoriya tahlillarida qizamiq kasalligi aniqlangan. Ushbu ko'rsatkich Namangan viloyati misolida qizamiqqa qarshi tekshirilganlar orasida 2255 nafarida kasallik klinik va laborator holatda tasdiqlandi. Bulardan 1 yoshgacha bo'lgan bolalar orasida 1202 nafar (53,4 %), 1-2 yoshlilarda 307 nafar (13,6%), 3-6 yoshlilarda 199 nafar (8,8%), 7-14 yoshlilarda 120 nafar (5,3%), 15-19 yoshlilarda 77 nafarida (3,4%), 20-30 yoshlilarda 135 nafarida (5,9%), 30 yoshdan kattalarning 215 nafarida (9,5%) aniqlandi. Qizamiq kasalligi asosan uyushmagan, qizamiqqa qarshi emlash olmagan bolalar orasida kuzatilgan.

Kasallik klinik va laborator tasdiqlangan bemorlarning qizamiq kasalligiga qarshi emlash tahlillari o'rganilganda 1963 nafari (87 %) emlash olmaganini aniqlangan. Qolgan bemorlarning aksariyati 1 marta emlanganlarni tashkil etgan.

Bolalarni respublikamizda rejali milliy emlash kalendariga muvofiq qizamiq kasalligiga qarshi 12 oylikda, odatda QPQ 1 (qizamiq, parotit va qizilcha) vaktsinasi bilan emlash tavsiya etiladi. Vaktsinaning ikkinchi dozasi (QPQ 2) bilan immunitet darajasini oshirish uchun olti yosh bo'lgan bolalarni emlanadi. Emlashdan keyin nojo'ya reaksiyalar deyarli juda kam uchraydi, tana harorati ko'tarilishi va inyeksiya joyida og'riq ko'p uchraydi.

QPQ vaktsinasi, agar emlash 12 oylik yoki undan katta yoshdagi bolaga yuborilsa, bitta dozadan keyin qizamiqni oldini olish uchun 95% samarali bo'ladi, agar QPQ vaktsinasining ikkinchi dozasi bilan emlash o'tkazilganda 99% bolalarda immunitetni ta'minlaydi. [5]

Vaktsinatsiya - kasallikning boshlanishining oldini olishda eng muhim omil. Bu yuqumli kasallikning kelib chiqishi va asoratlarini oldini oladi. Emlangan 100 ming kishidan faqat bittasi kasal bo'lib qolishi mumkin. Butun dunyoda qizamiqqa qarshi

emlash 2000 yildan beri qizamiq kasalligi bo'yicha o'limni 84 foizga qisqartirdi.

Emlashdan quyidagi holatlarda vaqtincha cheklov qilinadilar:

- tuxum oqsili va neomitsinga kuchli allergiyasi qo'zg'aladigan bemorlar.
- homilador ayollar
- immunosupressiya holatidagi bemorlar.
- qon yoki qon preparatlarini yaqinda qabul qilganlar. Og'ir kasallikka chalinganlar ga

xastalik o'tib ketmagunga qadar emlash ishlarini o'tkazmaslik lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi ma'lumotlarga ko'ra qizamiq kasalligi asosan qizamiqqa qarshi emlanmagan yoki bir marta emlash o'tkazilgan, immuniteti past aholi orasida ko'proq kuzatilishi mumkinligini ko'rsatadi. Bolalarni milliy emlash kalendariga muvofiq 13 turdagi yuqumli kasalliklarga qarshi emlash natijasida ko'plab insonlar hayotini saqlab qolinadi. Emlash kasallikni oldini olishning eng samarali usuli hisoblanadi. 12 oylik bo'lgan bolalarni vaksinatsiyaga va 6 yoshgacha bo'lgan bolalarni revaksinatsiyaga qamrab olish. Aholining turli indikator guruhlarini rejali tekshirganda seronegativlar soni 7 % dan oshmasligi kerak.

Qizamiq kasalligini faqatgina emlash bilan oldini olish mumkin. Uyushgan jamoalar o'rtasida qizamiq epidemiyasini oldini olish uchun bolalarni kamida ikki marotaba emlash lozim bo'lib emlash ko'rsatikichi 90-95%ni tashkil etishi zarurdir. Qizamiq kasalligi aniqlangan holda bemor bilan muloqotda bo'lgan barcha (yaqin qarindoshlari, oila a'zolari, uyushgan jamoalardagi muloqotlilari, tibbiyot xodimlari va boshqalar)ni kasallikka qarshi emlanganligi o'rganilib, emlanmaganlarni 72 soat ichida emlash shart. Har bir tana harorati ko'tarilgan, toshma toshgan, yo'tal yoki kon'yunktivit belgilari bor bemorlar qizamiqqa gumon qilinadi, ulardan albatta laborator tasdiq uchun qon taxlili namunasi olinadi.

Emlash natijasida har yili difteriya, ko'k'yo'tal, qoqshol, qizamiq kabi yuqumli kasalliklardan turli yoshdagi 2,3 millionlab insonlar hayotini saqlab qolinadi. Ushbu jarayon jamoat salomatligini saqlash tadbirlari ichida eng samarali usul hisoblanadi. Epidemiologik vaziyat yomonlashuvi koronavirus pandemiyasi davrida qizamiqqa qarshi emlash tadbirlari yetarli darajada tashkil etilmagani oqibatidir.

O'limning aksariyati qizamiq asoratlari tufayli sodir bo'ladi. Ko'pincha asoratlar 5 yoshgacha bo'lgan bolalarda va 20 yoshdan oshgan kattalarda rivojlanadi. Qizamiq bilan kasallangan bemorlarning taxminan 30 foizida bir yoki bir nechta asoratlar rivojlanadi. Rivojlangan mamlakatlarda bu o'rta otit (7-9% hollarda), pnevmoniya (1-6%), diareya (6%), ko'rish qobiliyatini yo'qotish va infektsiyadan keyingi entsefalit (1000 ta holatga 1 ta holat). Bir yoshgacha bolalar va kattalarda og'ir asoratlar xavfi yuqori. Qizamiqning kamroq tarqalgan, ammo juda jiddiy asorati sklerozli panensefalitdir (100 000 ta holatga 1 ta holat) [7,8]

Kattalardagi qizamiq tipik, lekin odatda og'irroq, og'ir kataral sindrom va intoksikatsiya sindromi bilan kechadi. Toshmalar keyinroq paydo bo'ladi, lekin ko'proq qalin toshma bo'ladi. Kattalardagi bakterial asoratlar bolalarga qaraganda kamroq rivojlanadi va meningoentsefalit tez-tez uchraydi.[9]

Qizamiqqa qarshi emlashni joriy etish va emlashni oshirish bilan epidemiya davrida ushbu infeksiyadan kasallanish darajasini kamaytirishga erishildi. Aholi immunitetining yuqori darajasiga ko'tarish ko'plab mamlakatlarda qizamiqni yo'q qilishga olib keldi, ammo agar bu daraja saqlab qolinmasa, qizamiq kasalliklarining davriy epidemiyasi yana

paydo bo'lishi mumkin.

Kasallikdan keyin umrbod immunitet shakllanadi. Yangi tug'ilgan bolalar emlangan yoki qizamiqqa chalingan onadan tug'ma immunitet oladilar, bunday immunitet 6-oygacha davom etadi.

Onada qizamiqqa qarshi maxsus antitelalari bo'lmasa, bola yangi tug'ilgan davrda ham kasal bo'lishi mumkin. Kasallikning takroriy hollari juda kam uchraydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Орлова О.Г., Ермоленко О.В., Рыбальченко Е.И. «Morbillivirus — вирус кори. Общая характеристика и диагностика инфекции» - учебно-методическое пособие. Санкт-Петербург. 2014. 25 с.
2. Work by Enders Brings Measles Vaccine License. The Hartford Courant (1963-yil 22-mart). — A strain of measles virus isolated in 1954 by Dr. Thomas C. Peebles, instructor in pediatrics at Harvard, and Enders, formed the basis for the development of the present vaccine. 2012-yil 3-noyabrda asl nusxadan arxivlangan.
3. "Measles Vaccine". Viral Immunol 31 (2): 86–95. March 2018. doi:10.1089/vim.2017.0143. PMID 29256824. PMC 5863094.
4. Kostinov M.P. Immunoprofilaktika kori s primeneniem kombinirovannix vaktsin //Epidemiologiya i vaksinoprofilaktika. - 2020. T. 19. - № 4. - S. 57-62.
5. Krasnova YE.M., Sanjarova G.S. Immunoprofilaktika kak effektivniy sposob bor'bi s kor'yu //Infektsiya i immunitet. - 2017. - № 5. - S. 593.
6. Zueva L.P., Yafaev R.X. Epidemiologiya. Sankt-Peterburg, 2006
7. Махмудова Д.И., Турсунова Д.А., Сафаева К.С. Достижения, проблемы и пути обеспечения своевременности охвата вакцинацией в Республике Узбекистан (РУз) // Всероссийская научно-практическая конференция с международным участием (Москва, 17-18 октября 2019 г) – С. 27
8. Поздняков А.А., Чернявская О.П. Проявления эпидемического процесса кори и краснухи на современном этапе //Эпидемиология и вакцинопрофилактика. - 2018. Т. 17. - № 5 (102). - С. 45-53.
9. Саидалиев С.С., Маматкулов Б.М. Иммунизации населения в республике УЗБЕКИСТАН //В сборнике: Современная медицина: новые подходы и актуальные исследования. Сборник статей по материалам V международной научно-практической конференции. -2017. - С. 115-120.